



## 2019 yilning yanvar – aprel oylarida QURILISH ISHLARI

### Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi  
- 4 732,6 mlrd.so'm

O'tgan yilning mos  
davriga nisbatan -  
114,6 %

Nodavlat mulkchiligidagi  
tashkilotlar -  
4 505,9 mlrd.so'm


Davlat mulkchiligidagi  
tashkilotlar –  
227,0 mlrd.so'm

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida Toshkent shahrida jami 4 732,9 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,6 %ni tashkil etdi.

Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 996,9 mlrd so'mni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 30,1 %ga ko'p ishlar bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkich darajasidan 2,4 %ga ko'paygan.

Yirik qurilish  
tashkilotlari




Kichik korxonalar  
va mikrofirmalar



Norasmiy sektor



O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da




Jami qurilish ishlaridagi ulushi, % da





Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa turdagi tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 63,8 % to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,8 % ga o'sgan holda 3021,1 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,4 % punktga ko'payib, 15,1% ni tashkil etish va 714,9 mlrd so'm miqdorida qayd etildi. O'tgan yilling mos davridagi hajmi bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 121,6 % ni tashkil etgani kuzatildi.




Shuni ta'kidlash lozimki, joriy davrda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi **yangi bino va inshotlarni qurish** bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 68,2 % yoki 3 229,4 mlrd so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoy soha ob'ektlarini yaratishga qaratilgan.



**Yirik qurilish tashkilotlari** tomonidan jami qurilish ishlarining 95,3 %i yoki 754,8 mlrd. so'm yangi qurilish ishlari bo'yicha bajarilgan.




**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** tomonidan jami qurilish ishlarining 55,6 %i yoki 1 685,2 mlrd. so'm yangi qurilish ishlari bo'yicha bajarilgan.

**Norasmiy sektor** hissasiga jami qurilish ishlarining 81,6 %i yoki 583,4 mlrd. so'm yangi qurilish ishlariga to'g'ri keldi.




**FAOLIYAT TURLARI BO`YICHA QURILISH ISHLARI**


Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlarining ulushi jami qurilish ishlari hajmida 60,1 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 5,2 % punktga kamaydi.



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 18,3 % to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,4 % punktga ko'paydi.



Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 21,6 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,8 % punktga ko'paydi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 16,9 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,3 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 17,1 % punktga ko'payib, 57,9% ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 10,7% punktga kamayib, 25,1 % ni tashkil edi.


### Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari (jamiga nisbatan %da)




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 55,1% ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 24,8 % punktga kamaydi.

Shuningdek kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 44,9 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 24,8 % punktga ko'paydi.

### Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari (jamiga nisbatan)




### Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari (jamiga nisbatan)



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 9,2 % punktga kamaydi va 7,4 % ni tashkil etdi. Qolgan 92,6 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 9,2 % punktga ko'paydi.

### Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi

(jamiga nisbatan %da)




Davlat mulkchiligi shaklidagi tashkilotlar tomonidan 227,0 mlrd. so'mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 4,8 foizni tashkil qildi, ya'ni 2018 yil yanvar-aprelga nisbatan 2,1 % punktga ko'paydi.

Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan 4 505,9 mlrd. so'mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 95,2 foizni (2018 yil yanvar-martga nisbatan 2,1 % punktga kamayish) tashkil qildi.

Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Bektemir (tumandagi qurilish hajmining 62,5 %ini tashkil etgan) va Mirobod (mos ravishda, 48,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.



### Tumanlar kesimida qurilish ishlari (jamiga nisbatan %da)








Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Sirg`ali tumanida kuzatildi 1,8%. Bu hududdagi qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar hissasiga to`g`ri keladi – hududdagi jami qurilish ishlarining 98,2 %i.

**Tuman kesimida qurilish ishlari  
(jamiga nisbatan % da)**



Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o`shish surati Sirg`ali tumanida kuzatilgan bo`lib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan o`shish sur`ati 117,4 %ni tashkil etdi.



**Tumanlar kesimida qurilish ishlari**

	<b>Jami mlrd. so`m</b>	<b>O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati, %, %</b>
<b>Toshkent shahar</b>	<b>4 732,9</b>	<b>114,6</b>
<i>tumanlar:</i>		
<b>Bektemir</b>	118,8	116,7
<b>Mirzo Ulug'bek</b>	662,4	115,3
<b>Mirobod</b>	716,2	114,3
<b>Olmazor</b>	374,6	115,8
<b>Sirg`ali</b>	260,2	117,4
<b>Uchtepa</b>	122,9	105,1
<b>Chilonzor</b>	380,8	116,0
<b>Shayxontoxur</b>	564,2	113,9
<b>Yunusobod</b>	632,4	113,6
<b>Yakkasaroy</b>	475,8	112,9
<b>Yashnobod</b>	424,6	115,8



Toshkent shahrining yuqori

o`rish sur`atga – 114,6 %  
ko`rsatkichga:

- “Yunusobod” va “Sirg`ali” metro liniyalarining qurilishi;
- Toshkent shahar halqa yo`lida elektro poyezdlar uchun temir yo`l qurilishi;
- Ko`ksaroy majmuasining qurilishi;
- Xalqaro Islom markazi binosining qurilishi;
- Toshkent shahridagi “Navruz” istirohat bog`ining qurilishi;



**davomi**

- Toshkent-Sharqiy aerodromi bazasida zamonaviy fuqaro aviatsiya aeroport majmuasi qurilishi kabi bajarilgan qurilish ishlari natijasida yuzaga keldi.



**Toshkent shahar statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo`limi**

Nashr uchun mas`ul:  
Aloqa telefoni:

**B. Shoimqulov  
(0371) 230-88-18**